

HUDUDNING TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KO‘RSATILAYOTGAN XIZMATLAR HOLATI TAHLILI

Boqiyeva Dildora Olimovna

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti 2 kurs magistranti

shoxujaeva@mail.ru

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanida faoliyat ko‘rsatayotgan Ipoteka bank ATIB Shahrisabz filiali tomonidan xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarga ajratilgan kreditlar va ularning natijalarini tahlil qildik. Banklar faoliyati samaradorligini oshirishda marketing xizmatlarini ahamiyati yuqori ekanligini o‘rgandik va o‘rganilan holat bo‘yicha xulosalar berdik.*

***Kalit so‘zlar:** bank-moliya tizimi, bozor mexanizmlari, iqtisodiy islohatlar, bank xizmatlari, moliyaviy baquvvat, yirik pul oqimi, moliya-kredit tizimi, moliyaviy resurslar.*

ANALYSIS OF SERVICES PROVIDED BY COMMERCIAL BANKS OF THE REGION

***Abstract:** In this article, we analyzed loans allocated to business entities by the Shakhrisabz branch of ATIB Mortgage Bank, operating in the Shakhrisabz district of Kashkadarya region, and their results. We studied the importance of marketing services in improving the efficiency of banks and drew conclusions based on the situation studied.*

***Key words:** banking and financial system, market mechanisms, economic reforms, banking services, financial stability, large cash flow, financial and credit system, financial resources.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida bank sohasi bo‘yicha quyidagilarni ma‘lum qildi: “...bank va moliya tizimida islohotlarni jadal davom ettirish, sohaga zamonaviy bozor mexanizmlarini keng joriy etish zarur.

Bugungi kunda bank tizimidagi eng asosiy muammo – ular kapitalining asosiy qismi, ya‘ni 83 foizi davlatga tegishli ekanidir. Bu, o‘z navbatida, bank sektorida sog‘lom raqobatga to‘siq bo‘lib, xizmat ko‘rsatish sifatiga salbiy ta‘sir qilmoqda.

Hukumat va Markaziy bank xalqaro moliya institutlari ko‘magida bank-moliya tizimini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqishi lozim.


Bunda bank tizimiga xususiy va xorijiy kapital kirib kelishi hisobidan biz davlat banklari ulushini bosqichma-bosqich kamaytirib boramiz. Bu esa sohada raqobat muhitini yaxshilashga, tijorat banklari faoliyatini, kreditlash sifati va madaniyatini har tomonlama oshirishga xizmat qiladi”²⁵.

Mamlakatimiz ilk bor xalqaro kredit reytingini oldi va jahon moliya bozorida 1 milliard dollarlik obligatsiyalarini muvaffaqiyatli joylashtirdi. Sanoatning 12 ta yetakchi tarmog‘ida modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish dasturlari jadal amalga oshirilmoqda. Natijada o‘tgan yili iqtisodiy o‘sish 5,6 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga, eksport – 28 foizga ko‘paydi. Oltin-valyuta zaxiralarimiz 2019 yil davomida 2,2 milliard dollarga ortib, 28,6 milliard dollarga yetdi. Qishloq xo‘jaligida fermer va dehqonlarning manfaatdorligini oshirish borasidagi o‘rganish va izlanishlarimiz davom etmoqda. “Har bir oila – tadbirkor” dasturi doirasida o‘z biznesini boshlayotgan oilalarga 5,9 trillion so‘m kreditlar ajratildi.²⁶

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan faol investitsiya siyosati natijasida iqtisodiyotga jalb etilgan investitsiyalar hajmi va dinamikasi quyidagi 1-rasmda keltirilgan.

²⁵ Sh.Mirziyoev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati davlat rahbarining 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2019y.

²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi-24-01-2020>.



1-rasm. O‘zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalar, mlrd. AQSh dollari hisobida

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilgan jami investitsiyalar hajmi 2008–2016 yillar davomida muttasil o‘shish tendentsiyasiga ega bo‘lgan. Biroq, boshlangan tuzilmaviy islohotlar natijasida narxlarning erkinlashtirilishiga bog‘liq holda dastlabki 2017 yilda investitsiyalar jalb etish hajmining 13,4 mlrd. AQSh dollariga tushib ketishiga olib keldi. Lekin, olib borilgan izchil investitsiya siyosati asosida 2018 yilda uning yana o‘shish tomon siljib, 14,5 mlrd. AQSh dollariga yetishiga erishildi. E‘tiborli tomoni shundaki, jami investitsiyalar va xorijiy investitsiyalarlar farqli ravishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 2011 yildan to bugunga qadar davrda faqat ijobiy ko‘rsatkichlarni qayd etgan.

Ta‘kidlash joizki, 2020- yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 3,6 % ga kamayganiga qaramasdan, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning asosiy qismi korxonalar va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirildi. Bu, albatta, xo‘jalik yurituvchi subyektlar birinchi navbatda ichki resurslaridan foydalangan holda o‘z faoliyatini kengaytirish yoki modernizatsiya qilishni afzal ko‘rishini isbotlaydi.

Quyidagi 1-jadvalda Shahrisabz tumanida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat banklari tomonidan ajratilgan moliyaviy resurslari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni tahlil qilamiz.

1-jadval

Shahrisabz tumanida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini tijorat banklari tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash (mln.so‘mda)

T/r	Banklar nomi	Yillar			2021 y.da 2019 y.ga nisb.%da
		2019	2020	2021	
1	Ipoteka bank ATIB Shahrisabz filiali	189 634,2	260 457,9	319 456,4	168,5
2	Ipak yuli bank ATB Shahrisabz filiali	164 789,2	209 526,7	221 487,6	134,4
3	Agrobank ATB Shahrisabz filiali	145 587,1	180 444,4	205 505,8	141,2
4	TIF AT Milliy bank Shahrisabz filiali	202 889,5	231 455,9	301 556,3	148,6
5	CHEKITB Hamkorbank			85 265,2	-
6	Xalq bank ATB	150 269,3	198 745,2	208 122,4	138,5
7	Mikrokreditbank ATB	196 523,2	235 255,7	223 789,9	113,8
8	Turon bank ATB	178 634,2	255 457,9	288 466,6	161,5

Manba: Shahrisabz tumani markaziy bank ma’lumotlari asosida tahlil qilingan.

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, tumanda 8 ta bank xizmatlari faoliyat ko‘rsatadi va ular kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda moliyaviy resurslari orqali qo‘llab quvvatlab turadi. Tumandagi eng katta kredit ta’minotini amalga oshiruvchi bank bu Ipotek

ATIB Shahrisabz filiali bo‘lib, uning xizmatlari 2021 yilda 2019 yilga qaraganda 168,5 foizga oshgan. Shuningdek, Turon bankining ko‘rsatgan xizmati 2021 yilda 288466,6 mln.so‘mni tashkil etib, biz tahlil qilayotgan yillarda o‘shish ko‘rsatkichi 161,5 foizga teng bo‘lgan.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohatlarning o‘tkazilishi, barqaror va samarali bo‘lgan bank tizimini shakllantirishni ko‘zlaydi. Buning

natijasida moliya-kredit tizimining samarali institutsional shakli ustidan izlanishlar olib borilmoqda, ichki bank sektoridagi munosabatlar tizimi, shuningdek Markaziy bankning nazorat qilish va boshqarish prinsiplari o‘zgarib bormoqda.

2-jadval

Ipoteka Bank ATIB Shahrisabz filialining balans ma’lumotlari DINAMIKASI
(mln. so‘m).

Balans ko‘rsatkichlari nomi	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2021 y.da 2018 y.ga nisb. %da
Aktivlar					
Naqd pullar va boshqa kassa xujjatlari	201,3	526	405,1	630,6	313,3
Boshqa banklardan olinishi lozim bo‘lgan mablag‘lar	121,0	132,6	178,6	102,69	84,8
Sotish-sotib olish hisobraqamlari	189,8	250,9	302,9	254,4	134,0
Ssuda va lizing operatsiyalari	175 111,8	189 634,2	260 457,9	319 456,4	182,4
Asosiy vositalar	9 163,2	10 258,2	12 458,6	13 661,3	149,1
Olish uchun hisoblangan foizlar	4 463,2	4 896,1	4587,4	5 631,6	126,2
Boshqa aktivlar	723,6	785,6	896,4	910,3	125,8
Jami aktivlar	189 973,9	206 483,6	279 286,9	326 985,99	172,1
Aktivlarning o‘shish sur‘ati, %da	10,5	8,6	35,2	17,1	1,6 punktga oshgan
Majburiyatlar					
Talab qilib olinguncha bo‘lgan depozitlar	9458,6	10458,9	11 669,4	12 369,4	130,8
Jamg‘arma depozitlari	15639,1	10456,3	9136,4	26364,8	168,6

Muddatli depozitlar	30123,1	29456,7	35669,1	25488,1	84,6
Boshqa banklarga to‘laniladigan mablag‘lar	155125,4	154045,4	166 444,2	175123,4	112,9
To‘lanilishi lozim bo‘lgan ssudalar	2072,0	2504,6	2624,6	3691,1	178,1
To‘lash uchun hisoblangan ssudalar	10207,4	15698,4	204587,1	24789,2	242,8
Boshqa majburiyatlar	4695,6	5897,6	7899,6	6779,3	144,4
Jami majburiyatlar	227 321,2	228 517,9	271 586,2	262 235,9	115,3
Majburiyatlarning o‘shish sur‘ati, % da	10	1	19	-3	0
Aktsioner kapital					
Oddiy aksiyalar	25,2	25,2	25,2	25,2	100
Imtiyozli aksiyalar	57,0	57,0	57,0	57,0	100
Qo‘shilgan kapital	401,8	420,1	450,8	542,0	135
Taqsimlanmagan foyda	33,3	80,8	100,4	30	90
Jami kapital	517,3	583,1	633,4	654,2	126,5

Manba: Shaxrisabz tumani markaziy bank ma’lumotlari asosida tahlil qilingan.

Ushbu 2.4-jadvalda Ipoteka Bank ATIB Shaxrisabz filialining balans ma’lumotlari dinamikasi tahlil qilingan bo‘lib, bunda bankning jami aktivlari yillar davomida ko‘payib borgan. Biz tahlil qilayotgan yillarni oladigan bo‘lsak, 2021 yilda 2018 yilga qaraganda aktivlar 172,1 foizga oshganligini ko‘rish mumkin.

Aktivlarning o‘shish sur‘atini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2021 yilda 2018 yilga nisbatan 1,6 punktga oshgan. Biroq, 2020 yilga gisbatan 2021 yilda 2,1 punktga kamaygan. Bankning jami majburiyatlari esa 115,3 foizga oshgan. Majburiyatlarning

o‘rsh ko‘rsatkichi 2021 yilda -3%ga kam bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2020 yilda 19 %ni, 2019 yilda 1%ni va 2018 yilda esa 10 %ni tashkil etmoqda.

Bank tomonidan chiqarilgan aksiyalarini tahlil qilar ekanmiz, bunda oddiy va imtiyozli aksiyalar yillar davomida o‘zgarishsiz qolgan. Qo‘shilgan kapital esa 135 foizga oshgan. Demak, jami bank kapitali 2021 yilda 2018 yilga nisbatan 126,5 foizga oshganligini jadval ma’lumotlari tahlilidan ko‘rish mumkin.

Endi biz tahlil qilayotgan Ipoteka Bank ATIB Shahrisabz filialining ko‘rsatayotgan xizmatlarini tahlil qilamiz (3-jadval)/

3-jadval

Ipoteka Bank ATIB Shahrisabz filiali tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	2019 yil		2020 yil		2021 yil	
		ming so‘m	jami soni	ming so‘m	jami soni	ming so‘m	jami soni
1	YaTT va xususiy korxonalariga berilgan imtiyozli kreditlar	37926,8	321	52091,8	256	42243,8	195
2	Jismoniy shaxslarga berilgan imtiyozli kreditlar	151707,4	5812	208366,1	6158	277212,6	6806
Jami bank tomonidan berilgan kreditlar		189 634,2	6133	260 457,9	6414	319 456,4	7001

Manba: Shahrisabz tumani markaziy bank ma’lumotlari asosida tahlil qilingan.

Ushbu jadval ma’lumotlari tahlilidan ko‘rinib turibdiki, Ipoteka Bank ATIB Shahrisabz filiali tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar va xususiy korxonalariga berilgan imtiyozli kreditlar hajmi 2021 yilda 2019 yilga nisbatan 111,4 foizga yoki 4317 ming so‘mga kўpayganligini ko‘rish mumkin. Jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar hajmi esa tahlil qilinayotgan yillarda 182,7 foizga oshgan, hamda jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar soni ham 994 taga oshganligini ko‘rish mumkin. Demak, bank tomonidan yakka tadbirkorlar va xususiy korxonalariga qaraganda jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar miqdori ancha yuqori ekanligidan dalolatdir.

Respublikamizda tijorat banklari tomonidan mijozlarning bank xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish va xizmatlar portfelini kengaytirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bank xizmatlarini amalga oshirish, mazkur faoliyatni tartibga solish va mijozlar manfaatini himoyalash borasida mustahkam xuquqi-me’riyo baza shakllantirilgan. Mijozlarning bank xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini yanada qondirishni rag‘barlantirish va buning uchun tijorat banklariga qulay imkoniyatlar yaratish borasida, hukumatimiz tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lib, bunda tijorat banklari faqat mazkur imkoniyatlardan optimal foydalanishni yo‘lga qo‘yish vazifasi yuklatilgan xolos.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, yangi bank xizmatlarini joriy qilishda, marketing qurollaridan keng foydalanishni taqozo etadi. Xususan, bu borada mijozlarning bank xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini o‘rganishda ularni segmentlarga ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida, turli xil mulk shaklidagi va turli xil moliyaviy holatga ega bo‘lgan mijozlar soni ko‘payadi. Bunda, bank xizmatlarini joriy qilishda moliyaviy baquvvat va nisbatan moliyaviy nochor xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bank xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, yirik pul oqimiga ega bo‘lgan tashkilotlar va moliyaviy baquvvat bo‘lgan korporativ tashkilotlar bank komissiyasi yuqori bo‘lishiga qaramasdan sifatli bank xizmatini ko‘rsatuvchi va yuqori imidjga ega bo‘lgan tijorat banklarini afzal ko‘radilar. Gap bu yerda VIP xizmatlarini joriy qilish va rivojlantirish to‘g‘risida borayotganligi ma’lum. Bu borada tijorat banklari mazkur toifadagi mijozlar uchun maxsus qulay bo‘lgan xizmat ko‘rsatish xonalarini tashkil qilish va bu amaliyotni tadbiq qilishi mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.Mirziyoev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati davlat rahbarining 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2019y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliasy-24-01-2020>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasining ma’lumotlari, 2021 y.
4. Shaxrisabz tumani markaziy bank ma’lumotlari ma’lumotlari, 2021 y.
5. [Эффективность инвестиций в экономику Кашкадаринской области](#). ЗС Шохўжаева, ШЯ Акбарова - Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари, 2020. Стр.203-208.
6. [MAMLAKATIMIZ QISHLOQ XO‘JALIGINI KREDITLASH TIZIMINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI](#). ZS Shoho‘Jaeva, DO Boqieva. 2022. Журнал.Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Том 2. № 5-2. Стр. 466-474.